



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 324 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjnovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
Mahalla instituti asosida kambag‘allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	269
Baratov J.N.	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish.....	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafruz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY MOHIYATI

Eshkarayev Bobir Chariyevich

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: bobireshkaraev@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2301-0474

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati va davlat byudjeti daromadlaridagi ahamiyati yoritilgan. 2015–2024-yillarda QQSdan tushumlar dinamikasi, to'lovchilar sonining o'sishi, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Xalqaro amaliyotdagi tajribalar, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi QQS tizimlari qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda QQS mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat solig'i, QQS, byudjet tushumlari, soliq imtiyozlari, nol stavka, soliq ma'murchiligi, xalqaro tajriba.

Abstract: This article examines the concept of Value Added Tax (VAT), its economic essence, and its role in generating state budget revenues. Based on statistical data for 2015–2024, the dynamics of VAT revenues and the growth in the number of taxpayers were analyzed. Comparative analysis with international practices (European Union, Russia, Central Asian countries) was conducted. The study proposes recommendations for improving the VAT mechanism in Uzbekistan.

Key words: value added tax, VAT, budget revenues, tax exemptions, zero rate, tax administration, international experience.

Аннотация: В статье раскрывается понятие налога на добавленную стоимость (НДС), его экономическая сущность и значение в формировании доходов государственного бюджета. На основе статистических данных за 2015–2024 годы проанализированы динамика поступлений по НДС и рост числа плательщиков. Проведен сравнительный анализ с международной практикой (Европейский Союз, Россия, страны Центральной Азии). По итогам исследования предложены направления совершенствования механизма НДС в Узбекистане.

Ключевые слова: налог на добавленную стоимость, НДС, бюджетные доходы, налоговые льготы, нулевая ставка, налоговое администрирование, международный опыт.

KIRISH

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda soliq-byudjet siyosatining samaradorligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, davlat byudjeti daromadlarining barqarorligi hamda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu jihatdan, soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) alohida ahamiyat kasb etadi.

QQS jahon amaliyotida eng keng tarqalgan bilvosita soliqlardan biri bo'lib, hozirgi kunda 170 dan ortiq davlatda amaliyotga joriy qilingan. Uning asosiy afzalligi – soliq yukining yakuniy iste'molchi zimmasiga tushishi va har bir bosqichda qo'shilgan qiymat asosida hisoblanishidir. Shu jihat bilan QQS davlat byudjeti uchun barqaror va ishonchli daromad manbai hisoblanadi.

O'zbekistonda QQS 1992-yildan joriy etilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida uning huquqiy va institutsional asoslari bir necha marotaba takomillashtirildi. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi, elektron hisobvara-q-faktura tizimining joriy qilinishi va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali QQSning ahamiyati yanada ortib bordi.



Yuqoridagi jarayonlar O'zbekistonda QQSning nafaqat fiskal ahamiyatini, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi rolini ham oshirdi. Shu bois, QQSning iqtisodiy mohiyati va uning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'shilgan qiymat solig'i masalalari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda va milliy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasining mashhur asari - The Modern VAT (2001) - QQSning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilib, uning iqtisodiy mohiyatini ko'rsatadi. Unda QQS ko'p bosqichli bilvosita soliq sifatida tavsiflanadi va davlat byudjeti uchun barqaror tushum manbai ekani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, QQSning neytralligi, ya'ni ishlab chiqaruvchilar va savdo subyektlariga noxush ta'sir ko'rsatmasligi qayd etilgan [1].

OECDning Consumption Tax Trends (2019) hisobotida QQSning turli mamlakatlarda qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida standart stavkalar 20–27% oralig'ida, imtiyozli stavkalar esa 5–9% atrofida ekani ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar soliq siyosatida fiskal barqarorlik va ijtimoiy yo'nalishni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyatga ega [2].

Jahon bankining VAT Revenue Ratio Database and Methodology (2020) hisobotida esa QQSning samaradorligini baholash uchun maxsus ko'rsatkich - VAT Revenue Ratio (VRR) tavsiya etilgan. Bu indikator amalda yig'ilgan QQS tushumlarini nazariy jihatdan to'planishi mumkin bo'lgan maksimal summa bilan taqqoslaydi va soliq tizimining samaradorligini o'lchash imkonini beradi [3].

Yevropa Ittifoqida QQS yagona bozorning asosiy moliyaviy ustuni hisoblanadi. Bu soliqning byudjet daromadlaridagi ulushi ayrim mamlakatlarda 30%dan oshadi. Markaziy Osiyoda esa Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar QQS tizimini qo'llab, standart stavka sifatida 12-20% oraliqdagi soliq stavkalarini belgilagan [4].

Rossiyada QQSdan tushumlar federal byudjetning qariyb 30-35%ini tashkil etsa, Qozog'istonda bu ko'rsatkich 25% atrofida. Qirg'iziston va Tojikistonda esa QQS asosan tashqi savdo operatsiyalarida katta ahamiyatga ega.

Rossiyalik I.A.Mayburov va boshqa olimlarning fikricha, QQS - tovar (ish, xizmat)ning ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakatining barcha bosqichlarida undiriladigan ko'p bosqichli iste'mol solig'idir. Bunda, ishlab chiqarish va sotish jarayonining har bir ishtirokchisi o'zi foydalangan moddiy resurslar qiymatini qanchalik oshirganiga qarab soliq to'laydi [6].

O'zbekistonda ham Sh.A.Toshmatov, M.S.Abishov, K.S.Ismaylov, I.M.Niyazmetov, U.Normurzayev va boshqa ko'plab iqtisodchi olimlarimiz QQS bo'yicha qator ilmiy izlanish olib borishgan.

Jumladan, Sh.Toshmatov Sh.A. QQSning fiskal ahamiyati va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi rolini ochib bergan. I.Niyazmetov esa o'z ishlarida QQS imtiyozlari va ularning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilib, imtiyozlarni optimallashtirish zarurligini qayd etgan [5].

U.Normurzayevning tadqiqotlari asosan soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalariga qaratilgan bo'lib, u elektron hisobvara-faktura tizimi va raqamlashtirishning ahamiyatini ta'kidlagan.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, QQS xalqaro miqyosda ham, milliy darajada ham davlat moliyasining eng muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Unga oid nazariy yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, umumiy jihat - QQSning davlat byudjetiga barqaror tushum keltiruvchi, adolatli va samarali soliq turi sifatidagi ahamiyatidir.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada QQSning iqtisodiy mohiyati va amaliyotdagi ahamiyatini o'rganish uchun qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, statistik ma'lumotlardan foydalanish kabi qator ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor 1954-yilda Fransiyada joriy etilgan. Undagi asosiy g'oya – mahsulot va xizmatlar aylanishining har bir bosqichida qo'shilgan qiymatdan soliq olish orqali byudjet uchun barqaror tushum ta'minlash edi.

Shundan keyin QQS Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida keng tarqaldi. 1960–1970-yillarda asosan G'arbiy Yevropa davlatlari bu soliqni joriy qilgan bo'lsa, 1990-yillarda katta to'lqin kuzatildi: 70 dan ortiq davlat qisqa vaqtda QQSga o'tdi. Bu jarayon Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq edi. Hozirgi kunda 170 dan ortiq davlatda QQS amal qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Dunyo bo'yicha QQSga o'tgan davlatlar soni.

Ushbu ma'lumotlarning dunyo xaritasida ko'rinishi quyidagi 2-rasmda keltirib o'tildi.



2-rasm. Mamlakatlarda QQSning joriy etilish xaritasi.

O'zbekistonda esa QQS 1992-yildan joriy etilgan. 1998 va 2008-yillardagi Soliq kodeksi tahrirlarida QQS hisob-kitobi va qaytarish tartibida turli o'zgarishlar kiritilgan. 2020 yilgi yangi tahrir esa QQSning huquqiy va institutsional asoslarini tubdan yangiladi: hisobot berish soddalashtirildi, elektron hisobvara-q-faktura tizimi joriy etildi va qaytarish amaliyoti takomillashtirildi.

QQS – bilvosita ko'p bosqichli soliq sifatida boshqa turdagi soliqlardan (aylanma solig'i, chakana solig'i) farq qiladi. Aylanma solig'ida soliq yuki to'g'ridan to'g'ri korxona zimmasiga tushsa, QQSda soliq yuki yakuniy iste'molchiga o'tadi. Shu jihatdan, QQS "neytral soliq" sifatida tavsiflanadi.

Uning iqtisodiy mohiyati quyida namoyon bo'ladi:

- Davlat byudjeti uchun barqaror tushum manbai;
- Soliq bazasining keng qamrovliligi (deyarli barcha tovar va xizmatlar qamrab olinadi);
- Neytrallik va shaffoflik;
- Soliq yukining ko'p bosqichli tarzda taqsimlanishi.

Masalan, O'zbekistonda 2015-yilda QQSdan tushum 10,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 59,3 trln so'mga yetgan. Bu soliqning iqtisodiy ahamiyati va byudjetdagi ulushi yil sayin ortib borishini ko'rsatadi.

QQS quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Fiskal funksiya. QQS davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbaidir. 2024-yilda jami byudjet daromadlari 274,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, unda QQSning ulushi 59,3 trln yoki 21,6%ga teng.

Tartibga solish funksiyasi. Soliq imtiyozlari orqali iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish imkonini yaratiladi. Masalan, 2023-yilda QQS imtiyozlari 11,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 9,9 trln so'mgacha qisqartirildi. Bu soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.




Ijtimoiy funktsiya. Eksport operatsiyalari uchun nol stavka joriy etilib, tashqi iqtisodiy faoliyat qo'llab-quvvatlanmoqda. 2023-yilda nol stavka bo'yicha hajm 25,7 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 28,9 trln so'mga yetdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida QQS stavkasi, odatda, 20–27% oralig'ida. Shu bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga molik tovar va xizmatlar uchun 5–9% imtiyozli stavka belgilangan.

Rossiyada standart stavka – 20%, Qozog'istonda – 12%, Qirg'izistonda – 12%, Tojikistonda – 18%. Singapurda 9%, Shvetsiyada esa 25% stavka qo'llaniladi.


Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, QQSning stavkasi mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi va soliq siyosatiga bog'liq holda turlicha. Lekin barcha mamlakatlarda uning asosiy maqsadi bir xil: byudjetga barqaror tushum ta'minlash va soliq yukini adolatli taqsimlash.

So'nggi yillarda O'zbekistonda QQS tushumlari yil sayin o'sib bormoqda. Masalan, agar 2015-yilda QQSdan davlat byudjetiga 10,9 trln so'm tushgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 59,3 trln so'mga yetdi. Bu qariyb 6 baravar o'sishni anglatadi. Umumiy davlat byudjeti daromadlarida QQSning ulushi 2024-yilda 21,6%ni tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda QQS tushumlari dinamikasi (2015–2024)

Shu bilan birga, QQS to'lovchilar soni ham sezilarli darajada oshdi. Agar 2017-yilda ularning soni 8,3 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib bu raqam 201 mingtani tashkil qildi (4-rasm).



4-rasm. O'zbekistonda QQS to'lovchilari soni.

Bu iqtisodiyotning formallashuvi, soliq qamrovining kengayishi va biznes subyektlari faoliyatining shaffoqlashuvi bilan izohlanadi.

2020–2024-yillarda O'zbekistonda QQS bilan bog'liq bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:



2020-yil – yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amaliyotga joriy qilinib, QQS mexanizmi, QQS hisob-kitobini soddalashtirish, elektron hisobot tizimini yo'lga qo'yish, ortiqcha to'langan QQSni 60 kun ichida qoplab berish belgilangan; elektron hisobvara-faktura tizimining to'liq ishga tushishi, onlayn-nazorat tizimlari bilan integratsiya qilish joriy qilingan.

2021-yil – yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi, soliq xavfini boshqarish tizimi joriy etildi.

2022-yil – QQSni hisobga olish, qaytarish tartibini takomillashtirish, ayniqsa eksportyorlar uchun tezlashtirilgan mexanizmlarni joriy etish.

2023-yil – - QQS to'lovchilarni ro'yxatga olish va guvohnoma berish tartibi kiritilgan, soliq stavkasi kamaytirilgan, hisobga olish tartibi o'zgargan, ortiqcha to'langan soliqni qaytarish 30 kun ichida deb belgilangan

2024-yil – “Xavfni tahlil qilish” tizimi joriy etildi va soliq ma'murchiligini segmentatsiya asosida takomillashtirish ishlari boshlandi, tovar-transport yuk xatini majburiy rasmiylashtirish, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartiblari joriy etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) davlat byudjeti daromadlarining barqaror manbai sifatida nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo mamlakatlarida ham katta ahamiyat kasb etadi. Uning iqtisodiy mohiyati ko'p bosqichli va neytral soliq turi ekanida, ya'ni soliq yuki to'liq yakuniy iste'molchi zimmasiga tushishida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida QQSning fiskal ahamiyati yanada ortayotgani ko'rinmoqda. Masalan, 2015-yilda QQSdan tushum 10,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 59,3 trln so'mga yetdi. Bu qariyb 6 baravar o'sishdir. Shu bilan birga, QQS to'lovchilar soni 2017-yildagi 8,3 mingdan 2025-yilga kelib 201 mingtagacha ko'paydi. Bu esa iqtisodiyotdagi formallashuv jarayonlarining kuchayganidan dalolat beradi.

QQSning tartibga solish funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega. 2023-yilda imtiyozlar hajmi 11,6 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 9,9 trln so'mga tushdi. Bu soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilsa, nol stavka orqali eksport hajmi va tashqi iqtisodiy faoliyat rag'batlantirildi.

Shu bilan birga, QQS qaytarish amaliyoti ham rivojlanib bormoqda. 2020-yilda 9,1 trln so'm qaytarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 22,8 trln so'mga yetdi. Tezlashtirilgan qaytarish tartibining joriy etilishi eksportyorlar uchun aylanma mablag'larni tezroq tiklash imkoniyatini yaratdi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqida standart stavkalar 20–27%, Rossiyada 20%, Qozog'iston va Qirg'izistonda 12%, Tojikistonda 18%, Shvetsiyada esa 25%ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa 2023-yildan stavka 12% etib belgilandi. Bu raqam mamlakatning raqobatbardoshlikni oshirish va biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish siyosati bilan uyg'un.

Tadqiqotlarimiz natijasida quyidagilarni taklif qilamiz.

1. Soliq imtiyozlarini optimallashtirish. Imtiyozlarning qisqarishi byudjetga ko'proq tushum kirishini ta'minlaydi. Shu bois imtiyozlar iqtisodiy samaradorlik asosida qayta ko'rib chiqilishi zarur.

2. QQS qaytarish jarayonini to'liq avtomatlashtirish. Elektron ma'lumotlar almashuvi va “Xavfni tahlil qilish” tizimi asosida qaytarish jarayonini yanada tezkor va shaffof qilish maqsadga muvofiq.

3. VRR indikatorini joriy qilish. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan VAT Revenue Ratio (VRR) indikatorini O'zbekistonda ham joriy etish QQSning samaradorligini baholash imkonini beradi.

4. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Soliq ma'murchiligini rivojlantirishda OECD, IMF va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tajribasidan foydalanish zarur.

Shu tariqa, QQS nafaqat davlat byudjeti uchun asosiy tushum manbai, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda ham muhim vosita sifatida o'zini namoyon etadi hamda O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keen M., Smith S. The Modern VAT. – Washington: International Monetary Fund, 2001. - 260 p.
2. OECD. Consumption Tax Trends 2019: VAT/GST and Excise Rates, Trends and Policy Issues. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 190 p.
3. World Bank. VAT Revenue Ratio Database and Methodology. – Washington: World Bank, 2020. – 85 p.
4. European Commission. VAT in the European Union. – Brussels: European Union, 2021. – 210 p.
5. Toshmatov Sh.A., Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. – 184 b.
6. Майбуrow и др. Энциклопедия теоретических основ налогообложения. – М.:Юнити-Дана, 2016. 503с.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
8. www.lex.uz
9. www.soliq.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>